
“Xon atlas” festivalida bolajonlar ham faol ishtirok etishdi

Qo’shtepa tumani MMTBga qarashli barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Xon atlas” festivali doirasida turli tadbirlar tashkil etilmoqda.

Jumladan, ushbu tadbirlarda 1, 15 hamda 26-davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining bolajonlari va tarbiyachilari faol ishtirok etishdi.

Shuningdek, “Baland masjid” MFY hududidagi “Kamalak” nomli maktabgacha ta’lim muassasasida ham “Qadriyatimning bir qismi bu - xon atlas” nomli tadbir tashkillandi. Tadbir davomida xon atlas sehri - ajdodlar qadrlagan milliy libosda aks etganligini murg’ak qalb egalari ko’rsatib bera oldilar.











